

MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH ARAFASIDA TURKISTON, XORAZM VA BUXORO RESPUBLIKALARINING O'ZARO MUNOSABATLARI TAHLILI

Abdishukurov Bobomurod Faxriddin o'g'li
Chirchik davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1924-yilda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish arafasida mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy holat, aynan shu davrda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi, Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi va Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, mazkur davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning harakterli jihatlari to'g'risida atroficha fikr yuritiladi.

Kalit so'lar: Turkiston SSR, BXSR, XXSR, O'rta Osioyo Iqtisodiy Kengashi, M. Frunze, Skalov, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, Sovet Ittifoqi, qizil armiya, Lyubimov, Turkkomissiya.

ANALYSIS OF THE RELATIONS OF THE REPUBLICS OF TURKESTAN, KHORAZM AND BUKHARA ON THE EVE OF NATIONAL-TERRITORIAL BOUNDARIES

Abdishukurov Bobomurad Fakhreddin ugli
Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the socio-political situation in the region on the eve of the national-territorial delimitation in Central Asia in 1924, and the mutual relations between the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic, the Bukhara Soviet Socialist Republic and the Khorezm Soviet Socialist Republic. In addition, the characteristic aspects of mutual relations between these countries are discussed in detail.

Key words: Turkestan SSR, USSR, Soviet Union, Central Asian Economic Council, M. Frunze, Skalov, Young Bukharas, Young Khiva, Red Army, Lyubimov, Turkish Commission.

АНАЛИЗ ОТНОШЕНИЙ ТУРКЕСТАНСКОЙ, ХОРАЗМСКОЙ И БУХАРСКОЙ РЕСПУБЛИКИ НАКАНУНЕ НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ГРАНИЦ

Абдишукуров Бобомурад Фахридин угли
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация. В статье анализируется общественно-политическая ситуация в регионе накануне национально-территориального размежевания в Средней Азии в 1924 году, а также взаимоотношения между Туркестанской АССР, Бухарской ССР и Хорезмской ССР. Кроме того, подробно обсуждаются характерные аспекты взаимоотношений между этими странами.

Ключевые слова: Туркестанская ССР, СССР, Среднеазиатский экономический совет, М. Фрунзе, Скалов, Молодые Бухары, Молодая Хива, Советский Союз, Красная Армия, Любимов, Турецкая комиссия.

Kirish. XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan Turkiston, Buxoro va Xorazmni qamrab olgan mintaqada muhim geosiyosiy o'zgarishlar ro'y berdi. 1917 yilgi inqilob va fuqarolar urushidan keyin bu yerda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi, Buxoro va Xorazm Sovet Xalq Respublikalari tuzildi. Turkiston, Buxoro va Xorazm O'rta Osiyoning o'ziga xos tarixiy va madaniy kelib chiqishiga ega bo'lgan uchta yirik davlat edi. Poytaxti Toshkent shahri bo'lgan Turkiston ulkan hududni, jumladan, hozirgi O'zbekistonni, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'izistonning bir qismini o'z ichiga olgan. Buxoro va Xorazm esa, hozirgi O'zbekiston va Turkmaniston hududida joylashgan o'z poytaxtlari Buxoro va Xivada bo'lgan muxtor xonliklar edi.

1924-yilda O'rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanish amalga oshirildi. Shunga muvofiq O'zbekiston SSRni tashkil etish to'g'risidagi qonun qabul qilindi. 1925-yil 13-fevralda Buxoroda ishchilar kengashlarining I qurultoyi bo'lib, u yerda qabul qilingan. Turkiston, Buxoro va Xorazm XSRlari o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar tarmog'i Markaziy Osiyoda milliy hududiy chegaralanishgacha bo'lgan siyosiy manzarani shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Milliy-hududiy chegaralanish arafasida Turkiston, Xorazm va Buxoro respublikalarining o'zaro munosabatlari tahlili quyidagi manbalar asosida olib borildi. Respublikamiz olimlaridan Q. Rajabov, O. Normatov, H. Tursunov, M. Xakimov va boshqalarning ilmiy izlanishlari natijasidagi nashrlar, rus va xorijiy olimlarning, jumladan I. Bochkareva, E. Usubaliyev, V. Genis, E. Ollovort va boshqalarning tadqiqotlarida taqdim qilingan fikr mulohazalari keng tahlil qilindi.

Ma'lumki, 1923–24 yillarda o'tkazilgan ma'muriy-hududiy chegaralanishdan ko'zlangan bosh maqsad – o'zbeklar davlatchiligiga bolta urish, ularning mintaqadagi madaniy, siyosiy hukmronligini yo'q qilish edi. Edvard Ollvortning fikricha, 1924 yilda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishdan ko'zlangan bosh maqsad, birinchi navbatda, o'zbeklarning O'rta Osioyo xalqlarini birlashtirish salohiyatiga barham berishdan iborat edi. Buning sababi shundaki, yuqorida qayd etilgan xalqlarni birlashtirish g'oyalari bevosita o'zbeklar bilan bog'liq edi. E. Ollovort bu haqda shunday deydi: "O'zbeklar madaniy sohada ham, siyosiy sohada ham Markaziy Osiyoning janubiy qismida yuqori mavqega ega edi. Ruslar uchun o'zbeklar har tomonlama xavf solar edi".

Ushbu maqola Turkiston, Buxoro va Xorazmning ushbu muhim davrda o`zaro munosabatlarini tahlil qilish, ularning o`zaro munosabatlariga ta`sir ko`rsatgan omillarni va keyinchalik mintaqadagi hududiy chegaralanishga ta`sirini yoritishga qaratilgan. U maxsus tarixiy usullar, jumladan, tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy va siyosiy tahlil, ketma-ketlik tamoyillari asosida tayyorlandi. Tarixiy voqealar xronologik jihatdan to`g`ri ketma-ketlikda tizimlashtirildi, voqealar rivoji va natijalariga to`g`ri va xolisona fikr bildirildi, dalillarga asosan xulosa taqdim etildi.

Muhokama va natijalar. Bu davrga kelib, Buxoro va Xivada xonlik va amirlik tuzumlari ag`darilib, respublika tuzumi o`rnatalgan edi. Dastlab 1920-yilda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, Buxoro amirligi hududida esa, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topdi. Mazkur voqealar xususida yanada batafsilroq to`xtalib o`tadigan bo`lsak, xususan Buxoro amirligida 1920-yilning yozida siyosiy vaziyat juda ham keskinlashdi. 25-avgustda qo`mondon M. Frunze Turkiston fronti qo`shinlariga “qo`zg`olon ko`targan Buxoro mehnatkashlariga yordam ko`rsatish to`g`risida” buyruq berdi. Jang harakatlariga siyosiy jihatdan rahbarlik qilish uchun Yangi Buxoro (hozirgi Kogon) shahriga Turkiston komissiyasi a`zosi va yangi tashkil topgan RKP(b) MK Turkiston byurosi raisining o`ribbosari Georgiy Safarov jo`natildi. Qizil armiya tomonidan Buxoro shahriga hujum ham 29-avgustga o`tar kechasi boshlandi. Hal qiluvchi janglar poytaxt Buxoro shahri darvozalari yaqinida ro`y berdi [1]. Buxoro bosqinining bevosita guvohi quyidagicha yozgan edi: “Shahar markazi yer bilan yakson qilindi. Jang davomida yuzlab zambaraklar va samolyotlar ishga solindi. Minglab snaryadlar va bombalar Eski Buxoro ustiga yog`dirildi. Shahar himoyachilaridan tashqari ko`plab begunoh keksalar, ayollar va bolalar halok bo`ldi. Aholining yuzlab uy-joylari, me`morchilik va tarixiy obidalar yer bilan yakson bo`ldi. Registon yondirildi” [2]. Shu tariqa, Buxoroda amir hokimiyyati kuch bilan ag`darib tashlandi. Hokimiyyat esa Buxoro jadidchilarining “Yosh buxoroliklar” partiyasi qo`li ostiga o`tdi.

1921-yil 4-martda Moskvada BXSR (Buxoro Xalq Sovet Respublikasi) bilan RSFSR o`rtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim tuzildi [3]. Bu hujjatlar XXSR singari Buxoro Xalq Sovet Respublikasini ham RSFSRga harbiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaram bo`lganligini qonun yo`li bilan mustahkamladi.

Xiva xonligida ham deyarli xuddi shunday holat kuzatildi. 1919-yil

22-dekabrda Turkiston komissiyasi (Turkkomissiya) direktivasiga binoan Turkiston fronti va Turkkomissiya vakili G. Skalov va Amudaryo qo`shinlari guruhining qo`mondoni N. Shcherbakov Xiva xonligi hududiga “uning qo`zg`olon ko`targan xalqiga yordam ko`rsatish uchun” bostirib kirish to`g`risida buyruq berdi [4]. Amudaryo qo`shinlari guruhining jangchilari ikki otryadga: N. Shaydakov qo`mondonligidagi shimoliy otryad hamda N. Shcherbakov qo`mondonligidagi janubiy otryadlarga bo`lindi. Janubiy otryad tarkibida xivalik qochoqlar (“Yosh xivaliklar”, kommunistlar va b.) dan tashkil topgan ko`ngilli otryad ham kurashdi. 28-dekabrda ularga Junaidxonidan norozi bo`lgan Qo`shmamedxon, G`ulom Alixon, Yaxshigeldi, Murodbaxshi kabi turkman va o`zbeklardan tashkil topgan turli qurolli guruhi qo`shildi. Tez orada xivalik qo`zg`olonchilarning umumiy soni 3000 nafar kishiga yetdi [5]. Sovet qo`shinlari Junaidxon lashkari qarshiligini yengib, Ko`hna Urganch, Xo`jayli, Eminqal`a, Porsu, Iloli, Toshhovuzni qo`lga kiritdi. Qizil askarlar va xonga qarshi bo`lgan qo`zg`olonchilar otryadlari 1920-yil yanvar oyining ikkinchi yarmida G`ozovot atrofida Junaidxon qo`shiniga jiddiy zarba berib, Xiva xonligi poytaxtiga yaqinlashdi hamda 1-fevralda poytaxt Xiva shahagini jangsiz qo`lga kiritdi [6]. Xiva xoni Said Abdullaxon o`z ixtiyori bilan taxtdan voz kechdi. Shu tariqa Xiva xonligida ham monarxiya tuzumiga chek qo`yildi. Xivada ham hokimiyatga jadidchilar keldi (“Yosh xivaliklar”).

1920 – 1924 yillarda O`rta Osiyoda Turkiston ASSR, BXSR va XXSR sovet respublikalari faoliyat ko`rsatdi. Bu paytda Turkiston ASSR RSFSR tarkibiga avtonom respublika sifatida kirgan bo`lsa, Buxoro va Xorazm respublikalari mustaqil davlat sifatida avval RSFSR va so`ngra 1922-yil 30-dekabrda SSSR tuzilgach, u bilan o`zaro munosabatga kirishdilar [4]. 1924 yil boshiga kelib, Sovet hukumati O`rta Osiyoda yangi milliy-hududiy “qayta taqsimlashni” boshlash uchun Bosmachilik harakatining asosiy markazlarini bostirishga, mintaqada o`zini ijtimoiy qo`llab-quvvatlashga muvaffaq bo`ldi. 1924-yil fevral-mart oylarida Turkiston ASSR, Buxoro va Xiva mahalliy partiya organlari tomonidan chegaralarni belgilash rejalarini muhokama qilindi va ularda “Sovet O`rta Osiyo hududini bir qator respublikalarga bo`lish masalasi” e`tirof etildi [7].

BXSR hukumati o`z qo`shinlari Turkiston ASSR va XXSR bilan o`zaro tinchlik asosida hamkorlik munosabatlarini o`rnatish tarafdori edi. BXSR hukumati Turkistonda bosh konsullik, Xorazmda o`z vakolatxonalarini tashkil qildi. BXSR va XXSR o`rtasida 1922-yil fevralda tuzilgan 15-moddadan iborat shartnomalarini har ikki mamlakat manfaatlarini aks ettirgan. Har ikki respublika o`rtasida o`zaro vakillar almashtirildi. Biroq BXSRning Turkiston bilan munosabatlari RSFSR organlarining ishtirokida olib borildi.

1921-yil 30-iyunda Buxorodan Turkistonga 500 000 pud g`alla jo`natish, uning 30 000 pudini darhol Farg`ona viloyatiga yetkazib berish haqida Turkiston komissiyasi qaror qabul qilgan edi. Buxorodan Turkiston va Rossiyaga jo`natilgan katta miqdordagi g`alla mahsulotlari Farg`ona va Samarqand viloyatlarida davom etayotgan ocharchilikni tugatishga xizmat qildi. Shuningdek, BXSR bilan Turkistonda faoliyat olib borgan “Xleboprodukt”, “Turkvino” va boshqa tashkilotlar bilan savdo-sotiq munosabatlari ham yo`lga qo`yildi. 1923 yil 5–9 martda Toshkent shahrida O`rta Osiyo respublikalari – Turkiston, Buxoro va Xorazmning I iqtisodiy konferensiysi chaqirildi. Konferensiya faoliyatiga RKP(b) MK O`rta Osiyo byurosi nomidan Isidor Lyubimov rahbarlik qildi. Konferensiyyada har bir respublikaning iqtisodiy ahvoli to`g`risidagi asosiy ma`ruzalarni Turkiston Iqtisodiy Kengashi raisi N. Paskusiy, Buxoro Nozirlar Sho`rosi raisi Fayzulla Xo`jayev, Xorazm Markaziy Ijroiya Komiteti vakili Otajonov qilishdi. Shuningdek, konferensiyyada moliiyaviy ahvol bo`yicha Iyevlev va Lyubimov ma`ruzalari ham tinglandi [8]. Konferensiyaning 1923-yil 9-martda bo`lgan oxirgi majlisida Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarini iqtisodiy jihatdan birlashtirish to`g`risida qaror qabul qilinib, O`rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (Sredaz EKOSO) tashkil qilindi [9]. Konferensiyyada 10 nafar kishidan iborat O`rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi Prezidiumi tuzilib, unga RSFSRdan 1ta vakil

(Lyubimov), Turkistondan 4 ta vakil (Xidiraliyev, Paskuskiy, Pribitkov, Risqulov), Buxorodan 3 ta vakil (Otako'jayev va b.), Xorazmdan 2 nafar vakil (Yakubov, Sarsenbayev) saylandi. O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi raisi qilib Turk EKOSOning boshlig'i N. Paskuskiy tayinlandi [8]. Markazlashgan yagona iqtisodiy kengashning tuzilishi bilan bolsheviklar va sovet hukumati mintaqani sovetlashtirish jarayonini avj oldirishdi. Iqtisodiy kengash tashkil qilingandan so'ng oradan ko'p o'tmay, avval Buxoro, so'ngra Xorazm sovet xalq respublikalari bu maqomdan mahrum qilinib, ular sun'iy tarzda sotsialistik respublikalarga aylantirildi. BXSR va XXSR tobora Markazga qaram bo'la boshladi. 1923-yil 11-sentyabrdan BXSRning Toshkentdagi bosh konsulligini tugatish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunday qarorlar orqali Markaz tobora tezroq Buxoro va Xorazm respublikalari iqtisodiyotini ham o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi [4].

Umumiy jihatdan oladigan bo'lsak, Markaziy Osiyoning milliy-davlat chegaralanishining o'ziga xos jarayonlari haqida aytishimiz mumkinki, ular asosan iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni hisobga olgan holda, ya'ni, o'troq va ko'chmanchi xalqlarning an'anaviy boshqaruvini hisobga olgan holda amalga oshirilgan bo'lsa, boshqa tomonidan, kichik xalqlar bu hudud doimo ularga tegishli bo'lgan degan savolni ko'targanlarida, ular internatsionalizm g'oyalari va sovet xalqining yagona jamosasining paydo bo'layotgan jarayonlariga murojaat qildilar. Bu bog'lanish o'sha davrdagi eng yirik etnik guruhlar sifatida, birinchi navbatda, o'zbek va qozoq xalqlarining manfaatlarini ko'zlagan bo'lishi mumkin. Garchi siyosiy nuqtai nazardan, xalqlarning madaniy va etnografik bo'linishi har doim ham hisobga olinmagan [10].

Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari umumiy tarixiy meros va madaniy yaqinliklarga ega bo'lib, bu ularning o'zaro munosabatlari katta hissa qo'shgan. Ko'p asrlik umumiy turkiy va fors madaniy ta'sirlari, shuningdek, islom merosi bu davlatlar o'rtasida madaniy va intellektual almashinuvlarga asos solgan. Respublikalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shakllanishida raqobat ham muhim rol o'ynadi. Hududi va aholisi kattaroq bo'lgan Turkiston kichikroq Buxoro va Xorazm xonliklariga nisbatan kuchli mavqega ega edi. Bu respublikalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yana bir hal qiluvchi omili iqtisodiy o'zaro bog'liqlik edi. Mintaqqa agrar iqtisodga ega bo'lib, O'rta Osiyoni qo'shni mintaqalar bilan bog'lovchi savdo yo'llari iqtisodiy aloqalarni yanada osonlashtirdi. Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishida siyosiy ittifoqlar va diplomatiya ham muhim rol o'ynadi. Respublikalar o'zlarining siyosiy mavqeini saqlab qolish yoki kuchaytirish uchun tashqi kuchlar, jumladan, Sovet Ittifoqi bilan ittifoq tuzishga intildi. Bu ittifoqlar ko'pincha kuchlar muvozanatiga va hududiy da'volarga ta'sir etib, ba'zi holatlarda respublikalar o'rtasidagi munosabatlarni yanada murakkablashtirar edi.

Turkiston, Buxoro va Xorazm o'rtasidagi o'zaro munosabatlar O'rta Osiyodagi milliy hududiy chegaralanishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy o'zaro bog'liqlik chegaralarni belgilash jarayoniga ham ta'sir ko'rsatdi, chunki har bir subyekt qimmatli resurslar va savdo yo'llariga kirishni ta'minlashga intildi. Sovet hokimiyati 1924-1925-yillarda O'rta Osiyoning siyosiy manzarasini qayta shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Soviet hukumatining milliy chegaralash siyosati Turkiston, Buxoro va Xorazmning hududiy yaxlitligiga daxldor bo'lgan etnik chegaralar bo'yicha chegaralarni o'zgartirishga qaratilgan edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish arafasida Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar murakkab va ko'p qirrali edi. Bu munosabatlarning shakllanishida tarixiy aloqalar, kuch dinamikasi, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va siyosiy ittifoqlar muhim rol o'ynadi. Ushbu o'zaro ta'sirlarning oqibatlari mintaqaning siyosiy chegaralarini qayta belgilagan keyingi hududiy chegaralanishlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu tarixiy dinamikani tushunish Markaziy Osiyoning geosiyosiy landshafti va uning mintaqadagi hozirgi xalqlarga doimiy ta'siri haqida qimmatli tushunchalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati

11. Rajabov Q. "Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920–1924 y.)". – Toshkent: "Ma'naviyat", 2002. – 12-b.
12. Генис В. "Разгром Бухарского эмирата в 1920 году". "Вопросы истории" (Москва). 1993. №7. – С. 49–50.
13. "История Бухарской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.)". Сборник документов. – Ташкент: "Фан", 1976. – С. 194–195, 198–203, 204–205.
14. Normatov O. O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish siyosatining O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri. Monografiya. Toshkent, "TURON-IQBOL", 2022.
15. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. Jamoaviy. O'zbekiston sovet mustamlakachilik davrida. T.: 119-b.
16. Минц И.И. Победа Советской власти в Средней Азии и Казахстане. – Ташкент: "Фан", 1967. – С. 674–675.
17. Бочкарева И.Б. Национально-территориальное размежевание в Средней Азии в 1924 г.: причины и влияние на этнополитические процессы в регионе // Известия АлтГУ. 2019. № 2 (106).
18. Первая экономическая конференция. Средне-Азиатских республик – Туркестана, Бухары и Хорезма. 5–9 марта 1923г. Стенографический отчёт. – Ташкент: Туркгосиздат, 1923. – С. 5–6.
19. Rajabov Q., Qandov B., Rajabova S. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). To' nashr va qayta tiklangan oltinchi. – T.: O'zbekiston, 2015. 169-b.
20. Усубалиев Э. История национально-государственного размежевания Средней Азии [Электронный ресурс]. URL: <http://easttime.ru/reganalitic/1/27.html/> (дата обращения: 22.02.2024).